



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT
KOMMUNIKATSIYA TEXNLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK
RIVOJLANISHLARINI QO'LLAB QUVVATLASH.**

**Sotvoldiyeva Zebuniso Abbosbek qizi,
Qo'qon universiteti Andijon filiali pedagogika, psixologiya va jismoniy
madaniyat kafedrası psixologiya
fani o'qituvchisi**

**Qo'qon universiteti Andijon filiali Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1- bosqich talabasi
Xotamova Durdona Axmadjon qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga ta'siri ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada AKT vositalari yordamida o'quvchilarda motivatsiya, mustaqil fikrlash, muloqot ko'nikmalari hamda emotsional barqarorlikning shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitining o'quvchilar psixologik xususiyatlariga moslashtirilishi, interaktiv metodlar orqali ularning kognitiv faolligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilariga AKTdan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi va o'quvchilarning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, psixologik rivojlanish, motivatsiya, moslashuv jarayoni, interaktiv ta'lim, kognitiv rivojlanish, raqamli resurslar, o'quv jarayoni samaradorligi.

Аннотация: В данной статье научно-практически анализируется влияние использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процессе начального образования на психологическое развитие учащихся. В работе рассматриваются формирование мотивации, самостоятельного мышления, коммуникативных навыков и эмоциональной устойчивости у





учащихся с помощью ИКТ-средств. Также освещаются вопросы адаптации цифровой образовательной среды к психологическим особенностям младших школьников и пути повышения их когнитивной активности посредством интерактивных методов. Результаты исследования предоставляют практические рекомендации для учителей начальных классов по эффективному использованию ИКТ и обосновывают значимость современных технологий в поддержке психологического развития учащихся.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, начальное образование, психологическое развитие, мотивация, адаптационный процесс, интерактивное обучение, когнитивное развитие, цифровые ресурсы, эффективность учебного процесса.

Annotation: This article provides a scientific and practical analysis of the impact of using information and communication technologies (ICT) in primary education on pupils' psychological development. It discusses how ICT tools contribute to the formation of motivation, independent thinking, communication skills, and emotional stability in young learners. The article also examines the adaptation of the digital learning environment to the psychological characteristics of primary school pupils, as well as methods for enhancing their cognitive activity through interactive approaches. The research findings offer practical recommendations for primary school teachers on the effective use of ICT and substantiate the importance of modern technologies in supporting pupils' psychological development.

Keywords: information and communication technologies, primary education, psychological development, motivation, adaptation process, interactive learning, cognitive development, digital resources, learning process efficiency.

Bugungi kunda ta'lim tizimini jadal sur'atlar bilan raqamlashyotgani sababli kommunikatsiyasi texnologiyalarining AKT o'rni keskin oshib bormoqda. Ayniqsa boshlang'ich ta'limda AKT dan samarali foydalanish o'quvchilar rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rstmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonining eng nozik bosqichida bo'lganligi sabab ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olish motivatsiyani shakllantirish va maktab muhitiga moslashuv jarayonini yengillashtirish o'qituvchining muhim vazifalaridan biri sanaladi. AKT vositalari





yordamida darslarni interfaol qiziqarli va samarali tashkil etish imkoniyati mavjud bo'lib bu o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan faolligini oshiradi psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim jarayonining, jumladan, boshlang'ich maktabda ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular nafaqat ta'lim va bilim sohasida, balki bolalar psixologiyasida ham sezilarli o'zgarishlarga olib keladi.

AKT bolalarning kongnitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Interfaol ta'lim dasturlari, o'yinlar va multimedia materiallari fikrlashni faallashtirishga, mantiqiy va analitik fikrlashni rivojlantirishga, muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Bolalar mustaqil ravishda ma'lumotlarni o'rganishlari, xulosalar chiqarishlari va qarorlar qabul qilishlari mumkin, bu ularni tanqidiy fikirlashni rivojlantirishga yordam beradi. AKT

bolalar uchun o'rganishni yanada qiziqarli va jozibador qiladi. O'yin elementlari va interfaol vazifalar va tezkor fikr-mulohazalarni olish qobiliyati o'quv jarayonida faol ishtrok etish uchun rag'bat yaratadi. Boshlang'ich maktabda ko'pincha diqqatni jamlashda qiynaladigan bolalar uchun AKTdan foydalanish kuchli motivatsion omil bo'lishi mumkin, chunki ular o'rganishni majburiy mashg'ulot emas, balki qiziqarli sarguzasht deb bilishadi.

AKT bilan o'zaro hamkorlik bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Kollektiv loyihalar, qo'shma o'yinlar va onlayn muloqot bolalarga hamkorlik, muloqot va nizolarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zaro munosabatlarning bu shakllari bolalarga jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rganishga imkon beradi.

- AKT dan foydalanishning bolalar uchun ijobiy va salbiy tomonlari:

O'quvchilarning motivatsiyasini	.





P s .	Ko'z va sog'liqqa salbiy ta'siri .
O'quv jarayonini tezlashtiradi .	Diqqatni tez chalg'ishi.
.	x .
.	Ijtimoiy ko'nikmalarning susayishi .

AKTdan foydalanishdagi yutuqlar bolalarning o'zini o'zi qadrlashi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Mustaqil ravishda yangi ko'nikmalarni o'rganish, muammolarni hal qilish va natijalarga erishish qobiliyati o'z yutuqlaridan qoniqish hissini yaratadi. Bu, ayniqsa, AKTdan foydalanish orqali o'z-o'zini anglash uchun yangi rollar va imkoniyatlarga ega bo'lgan o'ziga ishonchi past bolalar uchun juda muhimdir

AKT boshlang'ich ta'limda katta imkoniyatlar yaratadi, lekin me'yoriy va nazorat bo'lmasa, salbiy oqibatlar bo'lishi mumkin. Eng yaxshi natija – texnologiyani to'g'ri va o'rinli qo'llaganda yuzaga keladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlar, planshetlar, interfaol doskalar, multimedia dasturlari, onlayn o'quv platformalari) nafaqat bilimlarni yetkazish vositasi, balki o'quvchining kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi psixologik omil sifatida ko'rilmogda. AKTdan to'g'ri foydalanish o'quvchida yangicha fikrlash, mustaqil o'rganish ko'nikmalari, refleksiya, muammo yechish va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Multimedia vositalarining rang-barangligi, qiziqarli animatsiyalar, o'yin texnologiyalari o'quvchini darsga faol jalb etadi. Vizual materiallar bolada "o'zim o'rganaman" degan ichki ehtiyojni kuchaytiradi.





(Psixolog D. Ausubelning “vizual asoslangan o‘rganish nazariyasi”ga ko‘ra, ko‘rgazmalilik motivatsiyani sezilarli oshiradi.) Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantiradi. Ta’limiy dasturlar o‘quvchiga topshiriqni o‘z sur’atida bajarish imkonini beradi. Bolalar xatolarini mustaqil tahlil qiladi, qayta urinadi — bu esa metakognitiv (o‘z-o‘zini nazorat qilish) qobiliyatlarini rivojlantiradi. AKT diqqat, xotira, tasavvur kabi psixik jarayonlarni faollashtiradi. O‘yin shaklidagi ta’lim (gamifikatsiya) bola uchun murakkab mavzularni sodda va tushunarli qiladi. Moslashuvchan individual ta’lim. Har bir bolaning qobiliyatiga mos topshiriq berish imkoni mavjud. Bu o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini oshiradi va psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy-psixologik rivojlanishga qo‘shadigan hissasi. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Onlayn guruh ishlari, jamoaviy loyihalar o‘quvchilarning hamkorlik madaniyatini oshiradi. Raqamli muloqot tili, fikrni aniq ifodalash, fikr almashish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Rasm chizish dasturlari, video tayyorlash, multfilm yaratish platformalari bolada ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Bu esa emotsional intellektning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

O‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi. AKT vositalari orqali tezkor natija va baholash tizimi bola o‘zining muvaffaqiyatini ko‘rib turishiga yordam beradi. Bu o‘z-o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatni oshiradi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Onlayn viktorinalar” o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi. O‘yinlar orqali o‘rgatish bolalarning ruhan charchashini kamaytiradi. Stressni kamaytiradi va emotsional barqarorlikni oshiradi.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalarda: tajriba orqali o‘rganish (Piaget), faoliyat va o‘yin orqali rivojlanish (Vygotskiy) asosiy o‘rin tutadi. AKT bu ikki jarayonni kuchaytiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy ta’limda asosiy o‘rin tutadi, boshlang‘ich sinfdagi bolalarning psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, o‘rganish motivatsiyasini oshiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va bolalarda o‘zini o‘zi qadrlash va ishonchni mustahkamlaydi. Binobarin, ta’lim jarayoniga AKTni joriy etish har bir bola shaxsning barkamol rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Umarova M.X., Axmadaliev A.U., To'raev A.B., Imomov M.P. Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari.
- 2.VGOTSKIY L.S Mind in society; The Development of Higher Psychological Processes;- Harvard University Press 1978 .
- 3.XODJAYEVA N. TO'RAQULOVA . A. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim jarayoni. — Toshkent: Fan va texnologiya 2020.
- 4.YULDASHEV A., USMONOV M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.— Toshkent; o'qituvchi 2019.
5. G'oziyev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010

